

QADIMGI TURKIY TILDA VA HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA FE'L SO'Z TURKUMI

Yigitaliyeva Feruza Shavkatovna

Chirchiq Davlat pedagogika universteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Muratova Nafisa Baxtiyorovna**

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tili va eski o'zbek tilidagi fe'l so'z turkumi va uning ba'zi kategoriyalaridagi o'xshashliklar, farqlar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Ushbu so'z turkumi ikkala davrda ham tilshunoslikning morfologiya bo'limida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Fe'l aspektlari, funksional vazifa, zamon kategoriyalar, mumkinlik va nomumkinlik, nisbat shakllari, bo'lishli va bo'lishsizlik, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi.

Аннотация: В данной статье дается краткая информация о сходствах, различиях между глагольным словарем и некоторыми его категориями в современном узбекском литературном языке и староузбекском языке. Эта категория слов изучается в оба периода в разделе морфологии лингвистики.

Ключевые слова: глагольные аспекты, функциональная функция, категории времени, возможность и неизвестность, формы соотношения, причастия и деепричастия, словосочетание со вспомогательным глаголом.

Annotation: This article summarizes the similarities, differences between the present Uzbek literary language and the old Uzbek verb word category and some of its categories. This word category is studied in both periods in the morphology section of linguistics.

Key words: Verb aspects, functional task, time categories, possibility and impossibility, realitive forms, participle and nonparticiple, auxiliary verb conjugation.

Turkiy va o'zbek tilidagi so'zlarni har jihatdan solishtirishimiz mumkin xoh, tuzilish jihatdan, xoh ma'no jihatidan. Ularning o'rtasidagi farqli va o'xshashlik jihatlari talaygina. Tilning boyib borishi ham aynan mana shunda. Har bir so'zning kelib chiqishini o'rganganimizda, albatta, qadimdan u so'z qanday atalib kelganligi, bugungi kunda o'z holicha iste'moldami yoki o'zgarishlarga uchraganmi buni bilib olamiz. Qadimda ismlar deb atalgan so'z turkumlarimiz oldingidan ko'ra qay darajada boyiganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Bir jihat e'tiborga molikki qadimda ham va hozirgi o'zbek tilida ham so'z turkumlari morfologiyada o'rganiladi. Morfologiya bo'limida o'rganiladigan so'z turkumlari ichida fe'l eng faoli hisoblanadi. Eski o'zbek tilida ham fe'lning o'ziga xos belgilarini quydagi gramatik kategoriyalar tashkil etadi:



fe'l aspektlari, fe'l darajalari, fe'lning funksional shakllari (harakat nomlari, sifatdosh, ravishdosh), fe'llarda tuslanish(mayl, zamon, shaxs-son shakllari).

Eski o'zbek tilida ham fe'l turkumidagi so'zlar quyidagi to'rt asbektdan birida qo'llangan : bo'lishli va bo'lishsizlik, mumkinlik (imkon)va nomumkinlik. Fe'llarda bo'lishli va bo'lishsizlik aspektlarining ifodalinishi bo'yicha eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q. Ya'ni, eski o'zbek tilida ham fe'lning bo'lishli shakli uchun hech qanday qo'shimcha orttirilmaydi: *bar-*, *keltür-*, *kørsät* kabi. Bo'lishsizlik aspekti *-ma/-mä* affikisi bilan hosil bo'ladi: *borma-*, *keltürmä-*, *kørsätmä-* kabi. Shu bilan birga, ayrim ayrim fe'l shakllarining bo'lishsizlik aspekti *ermäs (emäs)* yoki *yo'q* so'zi yordamida ham ifodalanadi. [1;1]

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham fe'llar bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga bo'linadi. Bo'lishli fe'llar harakat yoki holatning bajarilganligini ko'rsatadi, Grammatik shakli, ya'ni qo'shimchasi yo'q. Masalan, *yurdi*, *o'qigan*, *yo'zmoqchi* kabi. Bo'lishsiz fe'llar esa harakat yoki holatning bajarilmaganini ko'rsatadi. *-ma* lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha orqali hosil qilinadi. Masalan, *keldi- kelmadi* kabi. Ayrim shevalarda shaxs-son qo'shimchalari yo'q so'zidan keyin qo'shiladi. Masalan, *borganim yo'q* o'rniga *borgan yo'qman*, *borganing yo'q* o'rniga *borgan yo'qsan*. [2;1]

Eski o'zbek tilida harakat nomining *-maq/mäk* va *-sh* (ish/ish, -ush/üş) affikslari bilan hosil bo'luvchi shakllari qo'llangan. *-maq/mäk* affiksli shakl harakat nomining asosiy ko'rsatkichi sifatida o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan. Masalan: *barmaq*, *kelmak*. [1;2] Harakat nomi fe'lning otga xoslangan shakli. Qo'shimchalari *-ish*, *-sh*, *-uv*, *-v*, *-moq*, *-mak*. Masalan: *bilmoq*, *ko'rmak*. Demak harakat nomi shakli demak modal fe'li bilan sinonimlik hosil qiladi. Hozirgi o'zbek tili davrida harakat nomining *-(i)sh* affikisi bilan yasalgan shakli ko'p qo'llanadi. Qadimgi o'zbek tili davrida esa kam qo'llanilgan. Masalan: Takrorlash bilimning onasidir. [2;2]

Turkiy tillarda mayl va zamon: ayniqsa, tarixan, shakl jihatdan o'zaro chegaralanib yetmagan kategoriyalarni tashkil etadi. Bu hol birinchi navbatda, mayl va zamon kategoriyalarining har biri uchun maxsus affikslarning yo'qligi, mayl va zamon ma'nolarini ifodalash uchun bir vaqtning o'zida ikkita affiksning qator ishlatilmasligi, bir affiksning ham mayl, ham zamon ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi. Ya'ni bir shakl, bir tomondan, mayl ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilasa, ikkinchi tomondan, ish-harakatning zamonga munosabatini ko'rsatishi mumkin. Masalan, aniqlik mayli turkumidagi fe'llar ish-harakatning qaysi zamonga xosligini ko'rsatish jihatidan tasnif qilinadi. Shuningdek, *-sa/-sä* affiksli alsa turidagi shakli bir tomondan shart maylini, ikkinchi tomondan shu maylning hozirgi va kelasi zamon shakli hisoblanadi. [1;3]



Keldim, kelyapman, kelaman fe‘llarining uchchalasi ham I shaxsni bildiradi, lekin ular harakatning nutq momentiga nisbatan qachon bajarilishini yoki bajarilmasligi bilan farq qiladi. Fe‘ldan anglashilgan harakatning nutq momentiga nisbatan bajarilishi yoki bajarilmaslik paytini bildiradigan shakllargazamon shakllari, ana shunday shakllar tizimi zamon kategoriyasi deyiladi. Fe‘l zamonlari harakat yoki holatning paytga munosabatini bildiradi. Payt deganda nutq so'zlanib turgan payt-nutq momenti nazarda tutiladi. Harakatning bajarilish vaqti bilan nutq payti orasidagi munosabatga qarab fe‘lning uch zamoni farqlanadi. 1. Bordim, bording, bordi. 2. Boray, borgin, borsin. 3. Borsam, borsang, borsa. 4. Bormoqchiman, bormoqchisan, bormoqchisiz singari bormoq fe‘lining turli shakllari ma‘nosiga e‘tibor bering. Birinchi guruhdagilar bilan ikkinchi va uchinchi guruhdagilar va to‘rtinchi guruhdagilar zamon zamon ma‘nosi bilan farq qiladi. Birinchi guruhdagilar o‘tgan zamoni, qolgan guruhdagilar kelasi zamoni bildiradi. Ular o‘rtasidagi farq faqat shu bilangina cheklanmaydi. Yuqoridagi to‘rt guruhdagi fe‘llar so‘zlovchining harakatga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra ham farq qiladi. Birinchi guruhdagi fe‘llar harakat-holatni uning bajarilgan vaqti bilan bog‘liq holda ifodalaydi. Harakat –holatning bajarilish-bajarilmasligi aniq bilinib turadi. Ikkinchi guruhdagi fe‘llarda harakatni bajarishga buyruq ma‘nosini, uchinchi guruhdagi fe‘llarda harakatning bajarilish sharti ma‘nosi, to‘rtinchi guruhdagi fe‘llar esa harakatning bajarilish ma‘nosi ifodalanadi. So‘zlovchining fe‘ldan anglashilgan harakat-holatga munosabatini bildirgan fe‘l shakllari mayl shakllari, shunday shakllar tizimi esa mayl kategoriyasi deyiladi.[2;3]

Qadimgi turkiy tilida va hozirgi o‘zbek tilidagi fe‘l so‘z turkumi farqlanishi va o‘xshashlik jihatlari ko‘p. Faqatgina qadimgi turkiy tilda qoidalar va qarashlar bir oz qisqa yoritilgan. Hozirgi kunga kelib tilimiz salmoqli darajada boyib borganligi va ilmiy izlanishlar natijasida qoidalar kengayib tushunish esa anchagina qulaylashgan.

ADABIYOTLAR

1. “O‘zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (170-bet) [1;1]
2. “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami” N. Erkaboyeva (334-bet) [2;1]
3. “O‘zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (172-bet) [1;2]
4. “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami” N. Erkaboyeva (307-bet) [2;2]
5. “O‘zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (199-bet) [1;3]
6. “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami” N. Erkaboyeva (199-bet) [1;3]

